

MAVZULI KOMPOZISIYA ASOSIDA RANGTASVIRDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH UCHUN ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Xo‘jaqulov Ro‘zibek Ilxomjon o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: xujakulovruzibek@gmail.com

Annotatsiya: maqolada rangtasvir mashg‘ulotlarida mavzuli kompozisiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Pedagogik texnologiya tushunchasining ta‘lim jarayonidagi o‘rni, uning ko‘rinishlari hamda umumpedagogik, xususiy va kichik darajalari rangtasvir ta‘limi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg‘ulotlarni loyihalash, interfaol metodlar, hamkorlik pedagogikasi, muammoli ta‘lim va mezonli baholash imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, kompozisiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, kreativ kompetensiya.

ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE THROUGH THEMATIC COMPOSITION IN PAINTING

Khojakulov Ruzibek Ilxomjon o‘g‘li

Master’s Student, Gulistan State Pedagogical Institute

e-mail: xujakulovruzibek@gmail.com

Abstract: this article outlines the theoretical and methodological foundations for applying advanced pedagogical technologies to develop students’ professional competence through thematic composition in painting classes. The role of pedagogical technology in the educational process, its forms, and its levels general pedagogical, subject-specific, and micro-level – are analyzed using the example of painting instruction. The study substantiates the possibilities of designing classes on the basis of a competence-based approach, employing interactive methods, collaborative pedagogy, problem-based learning, and criterion-referenced assessment.

Keywords: painting; composition; professional competence; pedagogical technology; competence-based approach; interactive methods; creative competence.

ПЕРЕДОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ЖИВОПИСИ НА ОСНОВЕ ТЕМАТИЧЕСКОЙ КОМПОЗИЦИИ

Хужакулов Рузибек Илхомжон огли

магистрант Гулистанского государственного педагогического института

e-mail: xujakulovruzibek@gmail.com

Аннотация: в статье освещаются теоретико-методические основы применения передовых педагогических технологий при формировании профессиональной компетентности студентов посредством тематической композиции на занятиях по живописи. На примере обучения живописи анализируются место понятия педагогической технологии в образовательном процессе, её виды, а также общепедагогический, частный и локальный уровни. В исследовании обосновываются возможности проектирования занятий на основе компетентностного подхода, использования интерактивных методов, педагогики сотрудничества, проблемного обучения и критериального оценивания.

Ключевые слова: живопись, композиция, профессиональная компетентность, педагогическая технология, компетентностный подход, интерактивные методы, креативная компетентность.

KIRISH

Rangtasvir mashg'ulotlarida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mavzuli kompozisiya orqali shakllantirish masalasi bugungi tasviriy san'at ta'limining metodik va didaktik rivojlanishida markaziy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mavzuli kompozisiya talabaning badiiy tafakkuri, obrazli fikrlashi va ijodiy qaror qabul qilish jarayonini faollashtiradi; u nafaqat texnik ko'nikmalar (rang munosabatlari, yorug'soya, kolorit, faktura)ni, balki badiiy g'oya, kompozision markaz, ritm, kontrast, muvozanat kabi konseptual-kompozision komponentlarni ongli boshqarishni talab qiladi [7:623]. Shu sababli mazkur jarayonni an'anaviy "tushuntirish – namoyish – takrorlash" modeli doirasida tashkil etish ko'pincha natijaning barqarorligi va baholashning mezonliligini ta'minlashda yetarli bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatda "texnologiya" atamasining faol qo'llanilishi bevosita ta'lim jarayonini tizimli loyihalash, boshqarish va kafolatli natijaga yo'naltirish ehtiyojining kuchaygani bilan izohlanadi. Pedagogik texnologiya hozirgi zamon didaktikasi va pedagogika taraqqiyotining mahsuli bo'lib, ta'limni "jarayon" sifatida emas, balki "maqsad – mazmun – metod – vosita – baholash"ning o'zaro bog'langan tizimi sifatida ko'rish imkonini beradi [12:6]. Bu yondashuv rangtasvir ta'limida ham

alohida ahamiyatga ega: chunki badiiy ta'lim natijalari ko'pincha subyektiv baholashga moyil bo'ladi, pedagogik texnologiya esa natijani kompetensiya indikatorlari orqali mezonlashtirish va monitoring qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida shaxs, oila, jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim sifati ortishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan sanaladi [12:6]. Aynan shu sababli texnologiyalashgan yondashuv "faoliyatni chiroyli tashkil qilish"dan ko'ra kengroq ma'noga ega: u ta'limning natijaviyligini oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash, pedagogik qarorlarni dalillarga tayangan holda qabul qilish [4:3], shuningdek, o'quvchi/talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda individual va differensial yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Rangtasvir mashg'ulotlarida mavzuli kompozisiya orqali kasbiy kompetensiyani shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur yo'l bilan talaba faqat "chizish va bo'yash"ni emas, balki bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi sifatida metodik fikrlash, darsni loyihalash, ijodiy vaziyat yaratish, o'quvchi ishini tahlil qilish, refleksiya va baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi kasbiy faoliyatning muhim komponentlarini ham egallaydi [6:462]. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish, raqamli vositalar va vizual kommunikatsiyani integratsiya qilish, hamkorlikdagi ta'lim modellari samaradorligini oshirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda [3:2; 9:12]. Mazkur matnning maqsadi rangtasvir mashg'ulotlarida mavzuli kompozisiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyaning mohiyatini ilmiy asosda yoritish, uning ko'rinishlari va darajalarini izohlash hamda tasviriy san'at ta'limi amaliyotida qo'llashning didaktik-metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqot yondashuvi kompetensiyaviy paradigma va tizimli-faoliyat yondashuvi asosida qurildi. Metodik jihatdan pedagogik texnologiyaning (1) ijtimoiy hodisa, (2) nazariy fan, (3) o'quv fani, (4) ta'lim-tarbiya tizimi, (5) ta'lim-tarbiya jarayoni, (6) pedagogik faoliyat va metodikalar hamda (7) aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi sifatidagi ko'rinishlari rangtasvir mashg'ulotlariga moslashtirildi [12:6]. Amaliy qo'llash uchun pedagogik texnologiya "qurilma"si quyidagi elementlar bilan operatsionlashtirildi: maqsadlarni kompetensiya indikatorlari bilan bog'lash; mazmuni mavzuli kompozisiya vazifalari asosida modullashtirish; metodlar va vositalarni (interfaol usullar, ko'rgazmali vositalar, raqamli resurslar) integratsiya qilish; diagnostika va monitoringni mezonli baholash rubrikalari orqali yo'lga qo'yish; refleksiya va o'zaro tahlil (peer-review)ni muntazam tashkil etish [7:624]. Rangtasvir mashg'ulotlarida tatbiq etiladigan texnologiyalar amaliyotda "sof" holda emas, balki kompleks (kompozit) ko'rinishda rejalashtirildi. Jumladan, muammoli ta'lim

(kompozision muammo va cheklovlar), hamkorlik pedagogikasi (guruhiy tahlil, birgalikda eskizlar banki), loyihaviy yondashuv (mavzu bo'yicha yakuniy ijodiy loyiha), o'yin elementlari (rolga kirib obraz yaratish), "aqliy hujum", keys-metod kabi interfaol shakllar qo'llanadigan metodik model sifatida ko'rib chiqildi [12:6]. Ushbu yondashuv badiiy ta'limning tabiati ijodiy izlanish va variantlar ko'pligi bilan mos keladi hamda talabani ijodiy mustaqilligi bilan pedagogik boshqaruv o'rtasida muvozanat yaratadi [4:3]. Kompetensiyani baholash uchun mavzuli kompozisiya doirasida quyidagi indikatorlar tizimi tavsiya etildi: (a) kompozision yaxlitlik va markazning asoslanganligi; (b) g'oya va obrazning ifodalanishi; (c) rang munosabatlari va koloritning mantiqiyli; (d) texnik bajarilish va material bilan ishlash madaniyati; (e) ijodiy yangilik va mualliflik yondashuvi; (f) tahlil, asoslash va refleksiya; (g) metodik izoh (bo'lajak o'qituvchi nuqtayi nazaridan) [6:462]. Bu indikatorlar ta'lim menejmenti nuqtayi nazaridan monitoringni tizimlashtirishga, baholashning subyektivligini kamaytirishga va talabani o'sish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Pedagogik texnologiyalar asosida loyihalangan mavzuli kompozisiya mashg'ulotlari natijasida talabalarning kasbiy kompetensiyasi bir necha yo'nalishda mustahkamlanishi kutiladi va amaliy kuzatishlarda ko'pincha quyidagi tipik o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Birinchidan, talaba kompozisiya qurish jarayonini "tasodifiy" emas, algoritmik-bosqichma-bosqich rejimda tashkil eta boshlaydi: mavzu tahlili, g'oya konsepsiyasi, eskizlar variativligi, tonal reja, rang yechimi, detal va faktura, yakuniy umumlashtirish bosqichlari o'zaro mantiqan bog'lanadi [1:45]. Ikkinchidan, interfaol va hamkorlikdagi faoliyat talabani vizual muloqot kompetensiyasini kuchaytiradi: u o'z ishini himoya qiladi, boshqa ishlarni tahlil qiladi [7:723], konstruktiv fikr bildiradi va o'zining ijodiy qarorini dalillashga harakat qiladi.

Uchinchidan, muammoli ta'lim elementlari (kompozision cheklovlar, rang gammasi, mavzuning dramatik yechimi, kontrast va ritm talablari) talabani ijodiy mustaqilligini oshiradi: u "tayyor usulni ko'chirish"dan ko'ra vaziyatga mos badiiy yechim topishga o'tadi [4:3]. To'rtinchidan, raqamli resurslarni (referenslar bazasi, tezkor rang palitrasi sinovlari, kompozision variantlarni taqqoslash) maqsadli qo'llash bo'lajak o'qituvchining zamonaviy metodik portfelini boyitadi, vizual savodxonlik va dizayn kompetensiyalarini mustahkamlaydi [3:2]. Beshinchidan, mezonli baholash rubrikalariga tayangan monitoring talabani natijasini aniqlashtiradi: masalan, "kompozision yaxlitlik" bo'yicha zaif bo'lgan talaba bilan "rang yechimi" bo'yicha sust talabani muammosi farqlanadi va individual metodik yordam yo'naltiriladi [11:6986]. Shunday qilib, pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash rangtasvir mashg'ulotini "ijodiy jarayon" sifatida saqlagan holda, uni didaktik boshqariladigan va diagnostika qilinadigan jarayonga aylantiradi.

MUHOKAMA

Natijalar va nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiya rangtasvir ta'limida faqat usullar jamlanmasi emas, balki maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi sifatida ishlashi zarur. Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi qirrasini ta'lim sifati, kadrlar tayyorlash, jamiyatning madaniy-estetik saviyasi bilan bog'liq bo'lib, san'at ta'limida ham bu ehtiyoj yaqqol namoyon bo'ladi [12:6]. Nazariy fan sifatida esa pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini ilmiy asosda loyihalash, kafolatli natijaga erishish ehtimolini oshirish, pedagogik qarorlarni me'yoriy-mezonli asosda qabul qilishga yordam beradi [11:6986]. Rangtasvir mashg'ulotlari sharoitida pedagogik texnologiyaning "ta'lim-tarbiya tizimi" ko'rinishi o'quv reja, dastur, didaktik materiallar, ko'rgazmali vositalar, studiya muhiti, metodik ta'minot, shuningdek, talaba mustaqil ishini tashkil etish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq [12:6]. "Jarayon" ko'rinishida esa u ta'lim berish, axborotni uzatish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, diagnostika hamda monitoringni yo'lga qo'yish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi badiiy ta'limda ayniqsa dolzarb: chunki ijodiy natijani barqaror shakllantirish uchun nafaqat topshiriq, balki refleksiya, tahlil, qayta ishlash (revision) va fikr-mulohaza madaniyati (feedback) ham tizimli tashkil etilishi kerak.

Pedagogik texnologiyalar darajalarini (umumpedagogik, xususiy fan va kichik texnologiyalar) rangtasvir mashg'ulotlarida uyg'un qo'llash metodik samaradorlikni oshiradi. Umumpedagogik daraja ta'lim muassasasining umumiy maqsad va boshqaruv modelini belgilasa, xususiy fan texnologiyasi rangtasvirning o'quv mazmuni va metodikasini konkretlashtiradi; kichik texnologiyalar esa darsning alohida qismlarida (tushuncha kiritish, yangi usulni o'zlashtirish, takrorlash, nazorat, refleksiya) yuqori aniqlik bilan didaktik vazifani hal etadi [12:7]. Shu jihatdan, mavzuli kompozitsiya jarayonini bosqichma-bosqich algoritmlash va har bosqich uchun indikatorlar belgilash talaba kompetensiyasining "parchalanib ketishi"ni oldini oladi: ya'ni g'oya kuchli, lekin texnika sust; yoki texnika yaxshi, lekin kompozitsiya muvozanati zaif bo'lishi kabi holatlarda manzilli metodik korreksiya qilish imkonini beradi.

Zamonaviy manbalar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish, dars samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirish, shuningdek, raqamli yondashuvlarni integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi [10:4]. Shu bilan birga, professional ijodiy faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning roli ta'kidlanadi: talabaning ijodiy qobiliyati faqat iste'dod bilan emas, to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muhit, motivatsiya, tahlil va refleksiya mexanizmlari bilan ham kuchayadi [4:3]. Demak, rangtasvir mashg'ulotlarida mavzuli kompozitsiya orqali kasbiy kompetensiyani shakllantirish pedagogik texnologiyalar

integratsiyasi orqali yanada natijador bo'lishi ilmiy-metodik jihatdan asosli hisoblanadi.

XULOSA

Rangtasvir mashg'ulotlarida mavzuli kompozisiya orqali talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonining tizimliliği, boshqaruvchanligi va mezonli baholanishini kuchaytiradi. Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi va jarayoni hamda pedagogik faoliyat metodikalari sifatidagi ko'rinishlarini rangtasvir ta'limiga moslashtirish talabalarda kompozision fikrlash, rang va kolorit madaniyati, ijodiy mustaqillik, refleksiya hamda metodik kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi [7:623]. Kelgusida mavzuli kompozisiya bo'yicha kompetensiya indikatorlarini yanada aniqlashtirish, mezonli baholash rubrikalarini takomillashtirish, raqamli didaktik vositalarni (vizual portfel, elektron rubrika, referenslar banki) metodik tizimga integratsiya qilish hamda tajriba-sinov ishlari orqali natijalarni statistik va sifat tahlili bilan mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.A.Berikbayev. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish (Monografiya). T.: "Grand kondor print", 2024.
2. Shakarbek o'g'li I. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA USUL VA VOSITALAR //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – T. 14. – №. 01. – S. 266-269.
3. Khojamkulov, R. (2024). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(5). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N57>.
4. Baxtiyarova , F. (2023). MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS. Ilm-Fan Va ta'lim, 1(1). извлечено от <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/120>.
5. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION / N. Jumaboyev. – International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.
6. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
7. Xo'jaqulov, Ro'zibek. "BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA

- RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.2 (2025): 622-625.
8. Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li. (2025, октябрь 21). TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA KOMPETENSIYA VA KOMPITENTLIKNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17403618>.
 9. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
 10. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
 11. Berikbaev, Alisher Alikulovich. "Development of competence skills of art education students." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.4 (2020): 6984-6988.
 12. Khayrov Rasim., Inoyatov O.S., Nuralieva Z.A., Xudoyberdiev D.R., Mirzaqulov I.X. APPLICATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS. <https://cahiersmagellanes.com/index.php/CMN/article/view/1033/833>.
 13. Imomov Fozil Shakarbek o'g'li. (2025, октябрь 24). MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17433530>.
 14. Odiljon I., Gulnoza H. TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 355-358.